

## BOBURIYLAR IMPERIYASIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TUTGAN O'RNI

*Shokirova Sevara Hayitmurod qizi*

**Annotatsiya.** Biz ushbu maqolada Boburiylar imperiyasida Zahiriddin Muhammad Bobur tutgan o'rnini hamda, buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning dunyo sivilizatsiyasidagi ahamiyatini, shaxsiyatidagi o'ziga xos xislatlar, hayotiy prinsiplari, xalqparvarlik amallari haqida fikr yuritiladi. Boburning insonparvarlik g'oyalari uning Hindistondagi buniyodkorlik ishlari, mamlakatni gullab-yashnatishi, sharqona madaniyatni olib kirishidagi xizmatlari orqali ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, shaxs, Bobur shaxsiyati, insonparvarlik, g'oya, temuriy, Hindiston, Sharq, sivilizatsiya.

**Аннотация.** В этой статье мы обсудим роль Захириддина Мухаммада Бабура в империи Бабура, место великого поэта и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура в мировой цивилизации, его уникальные черты личности, жизненные принципы и благотворительную деятельность. Гуманитарные идеи Бабура раскрываются через его творчество в Индии, процветание страны, его заслуги в распространении восточной культуры.

**Ключевые слова:** Захируддин Мухаммад Бабур, личность, личность Бабура, гуманизм, идея, Тимурид, Индия, Восток, цивилизация.

**Abstract.** In this article, we will discuss the role of Zahiriddin Muhammad Babur in the Babur empire, the place of the great poet and statesman Zahiriddin Muhammad Babur in world civilization, his unique personality traits, life principles, and philanthropic deeds. Babur's humanitarian ideas are revealed through his creative works in India, the prosperity of the country, and his services in bringing oriental culture.

**Key words:** Zahiruddin Muhammad Babur, personality, personality of Babur, humanitarianism, idea, Timurid, India, East, civilization.

### **Kirish.**

Sharq dunyo tarixida ilk Uyg'onish davri - Musulmon Renessansi davrida bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir ajdodlarimizning jahon ilmfani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo'shgan bebahohissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan olingan. O'rta asrlarning ilk davrida ulug' ajdodlarimiz tomonidan tabiiy fanlar - matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san'at, arxitektura sohalarida yaratilgan buyuk ilmiy g'oya va kashfiyotlar jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida keskin burilish yasadi. Hozirda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan bu ilmiy meros butun insoniyatning ma'naviy mulkiga aylangani shubhasizdir. Tarixdan bizga ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining shakllanishi va davlatchilikning tashkil topishi hamda ularning taraqqiy etishida Zahiriddin Muhammad Boburning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bugungi kunga qadar uning siymosi ko'z o'ngimizda buyuk shoh va shoir, mutafakkir, shuningdek, boburiylar sulolasining asoschisi hamda jasur sarkarda va davlat arbobi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, ingliz olimi Uilyam Erskin ham o'z satrlarida uning nechog'lik mukammal inson bo'lganligini tasdiqlab "Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbat va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi" deya ta'rif bergan. Bobur Mirzo 12 yoshida ekan, otasi bevaqt vafot etib, Farg'ona hokimligi uning zimmasiga tushadi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabit etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo'ldi. Lekin saqlab qolish nasib etmadni. Samarqandni ham, Andijonni ham qo'ldan berib, tog'-u toshlarda besh-o'n yigit bilan goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo'ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o'tdi. Kobul va G'aznani qo'liga kiritdi. So'ng

1526-yilda esa Hindistonni zabit etib, katta saltanat o'rnatdi.<sup>1</sup>

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

---

<sup>1</sup> R.Sharma. Boburiylar sultanati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.).. -T.: 1999.

Bobur hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi asar “Boburnoma” hisoblanadi. Asarda tarixning Bobur yashab o'tgan davri voqealarini ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo'jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo'lgan qamrovga ega. Ya'ni unda O'rta Osiyodan Hindistongasha bo'lgan o'lkalardagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda etilgan. Darhaqiqat “Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e'tiborlidir.

“Boburnoma” – ilmiy, adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'qqilari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqida ma'lumotlar jamlangan. Shuningdek boburnoma 25 tadan ortiq tillariga tarjima qilingan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni qo'lga kiritishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, san'atda, me'morchilik va madaniyatning qator sohalarida ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nasriy yozuvchi va shoir sifatidagi layoqati hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Tarixchi, iste'dodli so'z san'atkori, davlat arbobi va sarkarda Bobur vafotidan to'rt asrdan ko'proq vaqt o'tdi, ammo uning nomi boqiydir. Hindiston boburiylardan bo'lgan Humoyun, Akbarshoh, Jahongirshoh, Shohjahon davrlarida, ayniqsa gullab-yashnadi, hududlari kengaydi. Xususan, Akbarshoh va uning nabirasi Shohjahon hind xalqining qalbidan chuqur joy oldilar. Boburshohning yuragi ba'zan Vatanni – Andijonni qo'msab tursa ham, vaqt soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik, davlat va ma'muriy ishlarni odilona hal qilish bilan o'tkazdi. Boburiylar butun dunyoga mashhur bo'lgan tarixiy obidalarni bunyod etdilarki, ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda.

**Tahlil va natijalar.** U ko'plab iste'dodlarga ega bo'lgan inson edi: Hindiston va Afg'onistonni zabit etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, lirik asarini sharq she'riyatining yorqin asarlari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan buyuk shoir, buyuk yozuvchi, geograf va tarixchi, biolog. Uning qalbida ajdodlari va zamondoshlarining ijodi alohida o'rin egallagan. Javaharlal Neru, Mahatma Gandhi kabi hind davlat arboblari va

olimlari Bobur (1483-1530) hamda Boburiylar nafaqat Hindiston uchun, balki taraqqiy etgan dunyo tarixida ham katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etdilar. Bobur hamisha el-yurt, xalq uchun mas'uliyatni his etib kelgan. U o'z oldiga Temuriylar davlatini barpo etish, Samarqand atrofida markazlashgan imperiya tuzish, shu tariqa Sohibqironning orzusini ro'yobga chiqarish vazifasini qo'ydi. Ammo uning istaklari amalga oshmadi. Taqdir irodasi bilan Qobulda taxtga chiqdi, Hindistonda buyuk Boburiylar imperiyasiga asos soldi. Hindistonda davlatchilik siyosatini mustahkamlash, mayda-mayda feodal, rojaliklarga bo'linib ketgan yurtni yaxlit davlatga aylantirish, o'lka viloyatlarini markaziy sultanatga birlashtirish kabi maqsadlarda Bobur Mirzo Hind zamini sari harbiy yurishlarini amalga oshirdi. 1525-yilda Bobur Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistонни egallash maqsadida Ibrohim Lo'diyga qarshi jangga kirdi. 1525-yil kech kuzda Bobur Panjobni bo'ysundirdi, 1526-yilda Panipat qishlog'i yaqinidagi birinchi jangda Boburshoh qo'shini Dehli sultonni Ibrohim Lo'diyning ukasi Mahmud Lo'diy qo'shini ustidan g'alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi. 1526-yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultonni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shinini o'zining 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. 1527-yil martda Bobur Sikri yaqinidagi jangda rajputlar sardori Rano Sango qo'shinini tor-mor etib, butun Shimoliy Hindiston bo'ysundurdi.<sup>2</sup> Zahiriddin Bobur Hindistonda Boburiylar imeriyasiga asos solish bilan birga, pochta-aloqa sohasiga ham jiddiy o'zgartirishlar kiritdi, vaqt birligiga yangilik joriy etdi, arxitekturada Movarounnahr me'morlik uslublarini qo'lladi, milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos soldi. Buyuk Boburiylar imperiyasi davri nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki Hindistонни ulkan me'moriy yodgorliklar, noyob adabiy-tadqiqot ishlari bilan boyitdi. Hindistonning Buyuk Boburiylar sulolasiga qarashli me'moriy obyektlari – Fotihpur-Sikridagi Shoh saroy majmuasi, Agra, Dehli va Lahor qirg'oqlari saroylari va bog'lari kabilardir. Boburiylar tomonidan yaratilgan bog'larning eng ko'zga ko'ringan namunalari – Kashmirdagi Shalimar (1620) va Lahor bog'lari (1642), Anantag yaqinidagi Achabal bog'i, Chashma Shahi Bagh (1632), Kashmirdagi Nishat Bagh bog'i (1633),

<sup>2</sup> U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.). — T.: 1997:

Lahor, Dehli, Agra qirlari ichidagi ko‘plab bog‘lar; Qobuldagи maqbara va o‘nlab bog‘lar. Bobur doimo bog‘dorchilik faoliyatiga alohida mehr berdi va Hindiston hamda Pokistonda hanuzgacha Samarqand nomi bilan mashhur bo‘lgan uzumning yangi navlarini o‘stirdi. Hozirgacha uning ko‘plab bog‘lari “Boburi Anguri Xudo” – “Bobur uzum bog‘lari” deb nomlanadi.<sup>3</sup>

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Bobur va boburiylar xalqimizning buyuk farzandlaridir. Ular o‘zlarining serqirra faoliyati va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo‘shdilar. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur mart, jasur, kuchli bilim sohibi edi. Shu jihatdan Hindistonning atoqli jamoat arbobi Javoharlal Neruning “Hindistonning kashf etilishi” asarida Bobur haqida aytgan quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: “Bobur dilbar shaxs uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan xuzur qilishni yaxshi ko‘rardi” deb yozgan. Mutaffakir o‘zining ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qoshgan olim sifatida xalqimiz manaviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallagan.

### Foydalanimgan adabiyotlar.

1. Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdugafurov, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Azimdjanova S. Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966.
3. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
4. Mashrabov Z., Shokarimov S, Asrlarni bo‘ylagan Bobur, T., 1997;
5. R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 1999.
6. Sobraniye stixotvoreniy imperatora Babura, Petrograd, 1917; Stebleva I. V., Semantika gazeley Babura, M., 1982;
7. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
8. S.Hasanov. Boburning „Risolayi aruz“ asari. -T.:1986;
9. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.). — T.: 1997:
10. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
11. X.Yoqubov. Bobir. -T.:1941;
12. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
13. G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta „Boburnoma“. — T.:1996;

<sup>3</sup> Azimdjanova S. Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966.